



Reforms in the comprehensive support of the elderly in the New Uzbekistan to a new level and positive results

Fakhriddin YORMATOV¹

Termez State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2021

Received in revised form

28 May 2022

Accepted 20 June 2022

Available online

25 July 2022

Keywords:

elders,
support,
New Uzbekistan,
president,
the elderly,
social protection,
reform,
solitude,
system,
home,
grace,
generosity,
human dignity,
respect.

ABSTRACT

This article provides comprehensive information on the work being done in our country on social protection of the elderly, especially the elderly, the effective use of knowledge and rich life experience of the elderly in overcoming a number of social and domestic problems in our society has given. It was also noted that the rapid and large-scale reforms in our country have launched a new era in our country – the new era of Uzbekistan, which plays an important role in ensuring the well-being of our people.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss6/S-pp67-73>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yangi O'zbekistonda keksalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilishi va ijobiy natijalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

nuroniylar,
qo'llab-quvvatlash,
Yangi O'zbekiston,
prezident,
ijtimoiy himoyalash,

Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilishi va ijobiy natijalari o'rganilgan hamda ilmiy tahlil qilingan. Bundan tashqari, mamlakatimizda keksalarni ijtimoiy himoya qilish,

¹ Candidate of Historical Sciences, Associate Professor, Termez State Pedagogical Institute. Termez, Uzbekistan.
E-mail: faxriddin1973@mail.com.

islohot,
yakka-yolg'iz,
tizim,
uy-joy,
muruvvat,
saxovat,
inson qadri,
e'zozlash.

ayniqsa, yolg'iz keksalarga har tomonlama ko'mak berish, jamiyatimizdagi qator ijtimoiy va maishiy muammolarni barataraf etishda nuroniylarning bilim va boy hayotiy tajribasidan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham keng qamrovli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan jadal va keng ko'lamli islohotlar yurtimizda yangi davrni – yangi O'zbekiston davrini boshlab berganligi va bu esa nuroniyalarimiz farovonligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutayotganligi haqida so'z yuritilgan.

Переход на новый уровень и положительные результаты реформ по всесторонней поддержке пожилых людей в Новом Узбекистане

Ключевые слова:

пожилые люди,
поддержка,
Новый Узбекистан,
президент,
социальная защита,
реформа,
один на один,
система,
жильё,
доброта,
щедрость,
человеческое достоинство,
уважение.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучены и научно проанализированы достижения и положительные результаты проводимых в новом Узбекистане широкомасштабных реформ по всесторонней поддержке пожилых людей. В ней также представлена всесторонняя информация о проводимой в нашей стране работе по социальной защите пожилых людей, оказанию всесторонней помощи одиноким престарелым людям, эффективному использованию знаний и богатого жизненного опыта ветеранов в решении ряда социальных и бытовых проблем в нашем обществе. Говорилось также о том, что проводимые в нашей стране динамичные и масштабные реформы положили начало новому периоду в нашей стране – новому Узбекистану, что также играет важную роль в обеспечении благополучия наших соотечественников.

Odam bolasi dunyoga keladi, voyaga yetib, vaqt o'tishi bilan va nihoyat ,tabiiy o'laroq keksayadi. Bir kunmas bir kun hammamiz ham keksayamiz. Umrimizning oxirgi damlarida bizga qanday muomala qilinishini xohlasak, biz ham bugun atrofimizdagi keksalarga nisbatan aynan shunday muomala qilishimiz darkor. Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat ko'rsatish, ularning ahvolidan xabar olish, hech bo'lmaganda, ularni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash biz yoshlarning burchimizdir.

Ularning o'rni oilada ham, jamiyatda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ular kelajak avlodni xalqimizning ko'p asrlik qadriyati va an'analari ruhida tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Shu ma'noda, yoshi ulug' insonlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning tibbiy, maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash biz uchun doimo dolzarb vazifa sifatida turishi darkor. Mamlakatimizda keksalarni ijtimoiy himoya qilish, ayniqsa, yolg'iz keksalarga har tomonlama ko'mak berish, jamiyatimizdagi qator ijtimoiy va maishiy muammolarni barataraf etishda nuroniylarning bilim va boy hayotiy tajribasidan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda.

Keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish, ularga hurmat-e'tibor va mehr-oqibat ko'rsatish, salomatliklarini asrash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida so'nggi yillarda davlatimizning mavjud me'yoriy-huquqiy bazasi yanada takomillashib, qator qonunchilik hujjatlari ishlab chiqildi. 2014 yildan boshlab Mehnat vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda mamlakatda "Yolg'iz keksalarga va nogironlarga professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish" loyihasini amalga oshirib kelmoqda. Ushbu loyiha ko'magida "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-avgustdagi 237-sonli "Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [1] qabul qilindi.

Mazkur hujjatga muvofiq, o'zgalar yordamiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironlarni izlash va ularning hayot darajasini baholash tizimi ishga tushirildi. Tadbirlar mahalliy boshqaruv organlari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimi xodimlari tomonidan muntazam (har chorakda 1 marta) uyma-uy aylanib yurish orqali amalga oshiriladi.

Mening uyimga tuman tibbiy birlashmasining ijtimoiy yordam ko'rsatish xodimlari tashrif buyurib, yashash shart-sharoitlarim va hol-ahvolimni o'rganib ketishdi, – deya hikoya qiladi L. Kuz'mina – Hozirda haftasiga ikki marta ijtimoiy xodim uyimga kelib, sog'ligim haqida xabar oladi, oziq-ovqatlar va dori-darmon xarid qilish hamda ovqat tayyorlash va uyimda saranjon-sarishtalikni saqlashda menga yaqindan yordam ko'rsatadi. Bundan tashqari, u menga oyda bir marta un, shakar, go'sht, guruch, choy, yog' hamda sovun va kir yuvish kukuni singari 15 turdagi mahsulotlarni olib kelib beradi.

Hayotim anchagina yaxshilandi. Endi men o'zimni yolg'iz deb his etmayapman. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 14-aprelda qabul qilingan "Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni [2] nuroniylarimizga qo'shimcha rag'bat, katta ruhiy madad bo'ldi". Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida AQShning Kolumbiya universiteti sotsiologlari tomonidan "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari" degan mavzuda tadqiqot o'tkazildi va uning natijalari matbuotda e'lon qilindi. Ana shu tadqiqotga ko'ra, O'zbekistonimiz mazkur reytingda 158 mamlakat orasida 44-o'rinni, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari o'rtasida esa birinchi o'rinni egallagan.

Yangi tizimning kiritilishi ijtimoiy yordamga muhtoj insonlar va ularning oilalarini izlab topish, ro'yxatga olish va himoya qilish tizimini mukamallashtirdi.

Xususan, 2016-yil mobaynida faqatgina Toshkent viloyatining o'zida 200 dan ortiq yolg'iz keksa yoshdagi fuqarolar ijtimoiy himoyaga olingan. Butun respublika bo'yicha 17 mingdan ortiq yolg'iz keksalar va nogironlar ijtimoiy xizmatlardan foydalanishyapti. Ularning har biriga uy yumushlariga yordam berish, sog'liqni tiklash, rehabilitatsiya qilish hamda yolg'iz va yakka yashaydigan keksalarni ijtimoiy hayotga faol qatnashishga ko'maklashishni o'z ichiga oladigan individual ijtimoiy xizmatlar dasturi ishlab chiqiladi va joriy qilinadi. Buday dasturlarni bajarish turli xil tashkilotlarni, mahalliy hokimiyat va mahalla faollarini jalb etgan holda amalga oshiriladi.

Loyihaning yana bir faoliyati shu jarayonda qatnashayotgan tashkilotlarga aniq yo'riqnomalarni ishlab chiqishdan iborat bo'lgan. Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har

tomonlarni ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, uning dard-u tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak".

Mamlakatimiz Prezidentining yangidan qabul qilingan "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ana shu yo'nalishdagi ishlarning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi. Farmonda keksalarni ijtimoiy himoyalash, sog'lomlashtirish, ularning faolligini oshirish, jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. O'tgan davr mobaynida sohaga oid 20 ta Qonun hujjati, shu jumladan, 1 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta Farmoni va Qarori qabul qilindi, 16 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirildi.

Bundan tashqari, quyidagi institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi:

- keksalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida vakolatli davlat boshqaruvi organi – Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar va shaharlarda Nuroniylar jamoatchilik kengashlari tashkil etildi;

- mahallalarda keksalar ishlari bo'yicha jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan rais maslahatchisi lavozimi kiritildi;

- mahallalarda "Keksalar maslahati" guruhlari va "Buvijonlar maktabi" jamoatchilik kengashlari tashkil etildi.

Keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishida:

- 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilariga sanatoriyalarda har yili yo'llanmaning o'rtacha narxiga teng ravishda kompensatsiya olish huquqi berildi;

- Kasaba uyushmalari Federatsiyasi mablag'larining 30 foizini pensionerlarni, birinchi navbatda, urush va mehnat fronti faxriylarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish yo'lga qo'yildi;

- "Vatan himoyachilari kuni" va "Navro'z" bayramlarida "Nuroniylar" jamg'armasi hisobidan urush qatnashchilari va mehnat fronti faxriylariga moddiy yordam ko'rsatish tizimi joriy etildi;

- "Faxriy murabbiy" ordeni va "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni ta'sis etildi hamda shu davrga qadar 947 nafar nuroniylar "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi;

- 23818 nafar yakka-yolg'iz qariyalar va nogironlarga jami moddiy yordam hamda "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashovchilarga muruvvat yordamlarini muntazam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi;

- 493 mingga yaqin faxriylarning diqqatga sazovor joylarga, muqaddas qadamjolariga ziyorat va sayohatlari uyushtirildi;

- 4213 nafar ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga jami 22 mlrd. so'mga yaqin miqdorda mukofot pullari va esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi;

- 72 nafar urush qatnashchilariga Haj safariga borish bilan bog'liq bo'lgan 1,3 mlrd. so'm to'lab berildi;

- "Dori-darmon" AK hisobidan 125 mln. so'mlik dori-darmonlar urush qatnashchilari, yolg'iz pensioner va nogironlarga bepul yetkazib berildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrda "Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [3] asosida "1 oktabr – Xalqaro keksalar kuni"ni mamlakatimizda munosib

nishonlash maqsadida har yili oktabr oyining birinchi haftasi *“Keksalar haftaligi”* etib belgilandi. Aytish lozimki, ushbu muhim choralar keksalarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy faollik ko'rsatishda sharoit yaratib berish, mahalla va oilalardagi turli masalalarni keng jamoatchilik, xususan, keksa avlod vakillari hamkorligida hal etish imkoniyatini berdi.

Ta'kidlash o'rinliki, nuroniylarning katta hayotiy tajribalaridan samarali foydalanish, ayniqsa, murakkab oilaviy nizolarga yechim topish, jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy va maishiy muammolarni bartaraf etishda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan o'tgan vaqt davomida qator ishlar olib borildi.

Jumladan, barcha viloyat va tuman (shahar)larda *Nuroniylar jamoatchilik kengashlari*, mahallalarda *“Keksalar maslahati” guruhlari* va *“Buvijonlar maktabi”* kengashlari tashkil etildi. Mahallarda joylashgan otalar choyxonalari hamda tuman (shahar)larda joylashgan *“Nuroniylar maskani”*i va boshqa turli muassasalarda keksalar hamda faxriylar ishtirokida qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazildi.

Ta'kidlash lozimki, mazkur targ'ibot tadbirlari mamlakatimizda umrguzaronlik qilayotgan keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, turmush sharoitlarini yaxshilash, faol va mazmunli hayot kechirishlarini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqimiz azaldan oila atalmish qo'rg'onni muqaddas atab, uning buzilishi natijasida farzandlarning ota-ona mehrisiz kamolga yetishini jamiyatning eng og'riqli jihatlaridan biri sanab keladi. Uning oldini olish va oilalarda yuzaga kelayotgan nizo va ziddiyatlarni ijobiy hal etish maqsadida mahalla-ko'y, ayniqsa, nuroniy va kayvoni insonlar yordami beqiyos ekanligini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Bugungi kunda ham oilaviy ajrimlarning oldini olishda xalqimizning necha asrlik ushbu an'alaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, joriy yil davomida ajralish yoqasiga kelib qolgan 11 490 ta shu kabi oilaning saqlab qolinishiga erishildi. 5 865 ta notinch oilalardagi vaziyat esa nuroniylar va keng jamoatchilik vakillari aralashuvi bilan ijobiy tarafga o'zgardi. Albatta, bu kabi minglab oilalarning saqlab qolinishida bizning fidoyi va faol nuroniylarimiz, mahallalardagi katta hurmatga ega otaxon-u onaxonlarning xizmati muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana shuni aytish lozimki, nuroniy otaxonlar, onaxonlar va faol xotin-qizlarning *“Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va inson hayotida oilaning o'rnini yanada oshirish”* yuzasidan *O'zbekiston yoshlariga Murojaati* qabul qilindi. Shuningdek, haftaning shanba kuni mahallalarda *“Ahil oila kuni”* deb e'lon qilindi. Ushbu muhim tashabbuslarning hayotga joriy etilishi zamirida oilalar mustahkamligini ta'minlash mujassamdir.

Shu o'rinda aytish lozimki, keksa avlod vakillarining davlat va jamiyat hayotida, milliy urf-odat va an'alarni rivojlantirishdagi ijtimoiy faolliklarini oshirish maqsadida joriy yilning o'zida mahallalarda qator ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Joylardagi mavjud *“Nuroniylar jamoatchilik kengashi”*, *“Keksalar maslahati”* guruhi va *“Buvijonlar maktabi”* kengashi tomonidan ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish maqsadida *13 124 marotaba* shu kabi madaniy tadbirlar bo'lib o'tdi.

Yoshlarni turli huquqbuzarliklardan qaytarish, profilaktik hisobda turgan 3 274 nafar yoshlarni sog'lom muhitga jalb etish maqsadida shu toifadagi yoshlar ishtirokida 7 mingdan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Shu bilan birga, keksa avlod vakillari tomonidan 97 nafar afv etilgan shaxslar va 5 865 ta notinch oilalar bilan muloqotlar o'tkazildi.

Mahallalarda ma'naviy muhitni yanada yaxshilashning eng samarali tizimi sifatida yo'lga qo'yilgan "Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy" tamoyili asosida 36 218 nafar nuroniy 198 638 nafar tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhtoj va uyushmagan yoshlarga biriktirildi. Ayni vaqtda mazkur nuroniylar ishtirokida yoshlar ma'naviyatini oshirish, ularning vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash borasida qator ishlar olib borilmoqda.

Buning natijasi o'laroq, mahallalarda tarbiyasi og'ir yoshlar ishtirokidagi huquqbuzarliklar soni keskin kamayishiga erishildi. Shuningdek, uyushmagan yoshlar bilan ishlashning yangi va hayotiy metodlari hayotga joriy etilmoqda. 2020-yil Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida keksalar, jumladan, yolg'iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit va ta'sirchan tizim yaratish zarurligi, bu toifa uchun ajratilayotgan ijtimoiy to'lovlar miqdorini qayta ko'rib chiqish kerakligini alohida ta'kidlagan bo'lsa, joriy yil: "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga, albatta, yetamiz. Nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir" [4], degan qat'iy chorlovlari bilan ularga bo'lgan yuksak ehtiromini namoyon etdi.

Shuningdek, respublika "Nuroniy" jamg'armasining moliyaviy imkoniyatlari yanada kengaytirilishi, buning uchun ushbu jamg'armaga byudjetdan 100 milliard so'm ajratilishi, o'zgaralar parvarishiga muhtoj bo'lgan 16 mingdan ziyod keksalarga yordam berish, to'lovlar miqdorini oshirish, ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish vazifalari ham belgilab berildi. O'zbekiston aholisining qariyb o'ndan birinigina tashkil etayotgan keksa avlod vakillarining har biri nafaqat moddiy, balki ma'nan, ruhan ham qo'llab-quvvatlanishga munosibdir.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, 2020-yil so'ngida yurtimizda pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni 3 million 824 mingni tashkil etgan bo'lsa, ularning 2 849 118 nafari yoshga doir pensiya oluvchilar, 402 nafari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, 15 nafari esa mehnat fronti faxriylaridir.

2020-yil mazkur oylik ilk bor mamlakatimiz bo'ylab yuksak saviyada tashkil etilib, unga jami 56 ming 228 nafardan ortiq keksalar qamrab olindi. Ularning 10 151 nafari kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj nuroniylar ekani esa tadbirning ahamiyatini yanada oshirdi[5].

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigida: "Men Yangi – 2022-yilni mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili", deb e'lon qilishni taklif etaman.

Inson qadrini ulug'lash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir.

Muhtaram urush va mehnat faxriylarini, aziz ayollarimiz hamda yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash, ko'makka muhtoj insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor beramiz" [4], deya alohida ta'kidladilar. Xulosa o'rnida aytish lozimki, yoshi ulug' keksalar, jumladan, yolg'iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. Bunday insonparvarlik ishlari bundan keyin ham izchil davom etishiga shak-shubha yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Xalq so'zi". (The word of the people) 2015.11.08.
2. "Xalq so'zi". (The word of the people) 2015.15.04.
3. <https://lex.uz/docs/2898879>.
4. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
5. Ijtimoiy hayot. (Social life) 14 Aprel 2021.
6. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. (The newspaper of Uzbekistan) 2022.